

**ISSIQ SUV HOLIDAGI ISSIQLIK ENERGIYASIDAN  
FOYDALANISH TO'G'RISIDA  
SHARTNOMA**

2022 yil 01 yanvar

No 400-sonli

Xonqa \_\_\_\_\_ shahar/tuman

«Xorazm issiqlik manbai» DUK (bundan keyin “Ta'minotchi” deb yuritiladi) nomidan, Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **SH.Bobojonov** bir tomondan, Xonqa taman **Xalq ta'lim bo'limi** (bundan keyin “Iste'molchi” deb yuritiladi) nomidan. Nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari **F.S.Sabirov** ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar.

**I. SHARTNOMANING PREDMETI**

- 1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha “Ta'minotchi” issiq suv holidagi issiqlik energiyasini yetkazib berishni, “Iste'molchi” esa iste'mol qilgan issiq suv holidagi issiqlik energiyasi uchun haq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 1.2 Shartnomaning yillik umumiyligi qiyomi shartnomaga ilova qilingan yillik hisob varag'iga asosan, Shundan: 209 815 200 (**Ikki yuz to'qqiz million sakkiz yuz o'n besh ming ikki yuz**) so'm, byudjetdan tashqari hisobidan

0 \_\_\_\_\_ so'm, byudjetdan tashqari hisobdan.

- 1.3. Tomonlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 sentabrda «Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF 6313-sonli farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 22 avgust 2009 yildagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Issiqlik energiyasidan foydalananish qoidalari”ga muvofiq amal oshiradilar.

**II. UZATILADIGAN ISSIQLIK ENERGIYASI MIQDORI**

- 2.1 “Ta'minotchi”“Iste'molchi”ga 2022 yil 05 yanvar kunidan 2022 yil 31 dekabr kunigacha bo'lgan davrda hisob-varaqda ko'rsatilgan Gkal/soat eng katta issiqlik yuklamasi bilan issiq suy holidagi issiqlik energiyasini yetkazib berishga majbur, bunda:
  - a) texnologik ehtiyojlar uchun hisob-varakda ko'rsatilgan Gkal, (mexanizmlar va ishehixizmatchilar xizmatisiz)
  - b) issiq suv ta'minoti uchun hisob-varaqda kursatilgan Gkal/soat; (o'lhagich jihoz o'rnatilgan bo'lsa, kursatkichga asosan)
  - v) xonalarni isitishga hisob-varaqda ko'rsatilgan Gkal/soat, tashqi muxit harorati +0,8 grad.S bo'lganda, (KMK 2.01.01-94 asosan)
  - g) shamollatishga hisob-varaqda ko'rsatilgan Gkal/soat, tashqi muxit harorati +0,8 grad.S bo'lganda, (KMK 2.01.01-94 asosan)
- 2.2. “Iste'molchi”ga isitish va shamollatish uchun “Ta'minotchi” tomonidan beriladigan issiqlik energiyasi miqdori tashqi muxitning haroratiga qarab belgilanadi, ishlab chiqarish va issiq suv ta'minoti maqsadlari uchun esa “Iste'molchi” tomonidan taqdim etilgan va “Ta'minotchi” bilan kelishilgan buyurtmanomaning bir sutkalik iste'mol jadvaliga asosan belgilanadi va yil choraklari bo'yicha bo'linishi 6-ilovada ko'rsatilgan:
- 2.3. “Ta'minotchi” isitish mavsumida uzatiladigan tarmoq suvining o'rtacha sutkalik haroratini issiqlik tarmog'ining balans bo'yicha mansublik chegarasida ilova qilinayotgan harorat jadvaliga muvofiq bo'lishini hamda harorat jadvalidan (+-) 3

foiz, uzatuvchi quvurdagi suvning bosimi jadvalda ko'rsatilganidan (+) 5 foiz chetga chiqishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Yozgi mavsumda esa uzatiladigan tarmoq suvining o'rtacha sutkalik harorati jadvalga ko'rsatilganidan (+) 3 foizdan, uzatuvchi quvurdagi suvning bosimi (+) 5 foiz chetga chiqishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

2.4. "Iste'molchi" quydagilarga rioya etadi:

a) tarmoq suvi sarfining hisoblab chiqilgan miqdori 3-ilovada ko'rsatilgandan oshmasligi;

b) issiqlik tarmog'idan olinadigan suvning eng katta miqdori metodik qo'llanmaga asosan «Iste'molchi»ning issiq suv ta'minotidan foydalanuvchi nuqtalarni issiq suv o'tkazish meyori, issiq suvdan foydalanuvchi nuqtalarning soni va xakozalar to'g'risida tuzilgan ikki tomonlama dalolotnomaga asosan. (Yopiq tizimda ishlaydigan qozonxonaning issiqlik tarmog'idan issiq suv olib foydalanish qat'yan man qilinadi. Agar aniqlansa, «Iste'molchiga» issiq suv ta'minoti uchun hisob-kitob qilinadi.)

v) tarmoqdan sizib chiqadigan (yo'qotiladigan) suvning meyori «Issiqlik energiyasining ishlab chiqish, uzatish uchun yokilg'i, el/energiyasi va suv sarflari meyorlarini, hamda issiqlik yuklamalarini, issiqlik tarmoqlaridagi texnologik yuqotishlarni aniqlashning hisoblab chiqish metodikasi»ning 42-punktiga asosan yetkazib berilgan issiq suvning 0.0025 m<sup>3</sup> dan ko'p bo'lmasligi;

g) qaytish tarmog'idiagi suvning o'rtacha sutkalik harorati jadvalidagi miqdorga nisbatan 30Sdan yuqori bo'lmasligi. Tarmoqdan olinadigan suvning eng katta miqdori "Ta'minotchi" tomonidan rostlagich (regulyator) yoki surilma qopqoq yordamida belgilanadi. (Elevatordagi toraytiruvchi qurilmalarni almashtirish "Ta'minotchi" bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Elevator qurilmalari xar yili «Ta'minotchi» tomonidan yuborilgan yuriqnomaga asosan ko'rirkdan o'tkazilishi va yuriqnomalablariga to'liq javob berishi shart.)

2.5. "Iste'molchi"ning qaytish magistral tarmog'idiagi suv bosimi, mahalliy tizimni to'liq to'ldirilishini ta'minlashi lozim, aks holda "Iste'molchi" issiqlik kiruvchi quvurda rostlagich (regulyator) o'rnatadi.

### III. ISSIQLIK ENERGIYASINING NARXI VA HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Issiqlik energiyasi uchun to'lovlarni amalga oshirishning hisob-kitob davri bir oy hisoblanadi.

3.2. "Iste'molchi"ga yetkazib berilgan issiqlik energiyasining miqdori kirish qismida o'rnatilgan hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. (Agarda «Iste'molchi»ning issiqlik energiya yoki issiq suv ta'minotiga hisobga olish pribori o'rnatilagan bulsa, bu haqida ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomaga ushbu shartnomaga ilova qilinadi. «Iste'molchi» obyektlarida issiqlik energiyasini hisobga olish priborlari o'rnatilmagan bo'lsa, «Issiklik energiyasi ishlab chiqish, uzatish uchun yoqilg'i, elektr energiyasi, issiqlik'energiyasi va suv sarflari meyorlarini hamda issiqlik yuklamalarini, isitish qozonxonalarining o'z extiyojlari uchun issiqlik energiyasi sarsini, shuningdek issiqlik tarmoqlaridagi yuqotishlarni aniqlashning hisoblab chiqish metodikasi»ga binoan hisoblangan binolarini isitishga kerakli bo'lgan issiqlik miqdori buyicha hisob-kitob qilinadi.)

3.3. “Ta’minotchi”ning obyektlarida o’rnatiladigan issiqlik energiyasini hisobga olish priborlari “Iste’molchi” tomonidan sotib olinadi va o’rnatiladi, “O’zstandart”

agentligida attestatsiyadan o'tkazilgandan keyin shartnoma asosida "Ta'minotchi"ning xizmat ko'rsatishiga o'tkaziladi.

"Iste'molchi"da o'rnatilgan hisobga olish priborlari "Iste'molchi"ning o'zi tomonidan "O'zstandart" agentligida attestatsiyadan (pribor komplektda 2 yilda, termometr 1 yilda bir marta) o'tkaziladi, "Iste'molchi"ning o'zi tomonidan pribor yechib olinadi, ta'mirlanadi, o'rnatiladi va ekspluatatsiya qilinadi.

3.4. "Ta'minotchi" tomonidan xizmat ko'rsatiladigan hisobga olish priborlarini ta'mirlash davri mobaynida issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblar priborlar to'xtashidan oldingi oxirgi 15 sutka uchun o'rtacha sutkalik surf bo'yicha amalga oshiriladi. "Iste'molchi"ning balansidagi issiqliknki hisobga olish priborlari ta'mirlash uchun 15 sutkagacha bo'lган muddatga to'xtatilganda issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblar priborlar to'xtashidan oldingi oxirgi 15 sutka uchun o'rtacha sutkalik surf bo'yicha, 15 sutkadan ko'p bo'lган muddatga to'xtatilganda esa hisob-kitoblar shartnomadagi bir soatlik yuklama va issiqlik energiyasini uzatish soatlari soni bo'yicha amalga oshiriladi.

"Iste'molchi" hisobga olish priborlarini ta'mirlash tugagungacha iste'mol qilishni to'xtatib turishga haqlidir, bu holda "Ta'minotchi" berkitish armaturasini plombalaydi va bu haqda birqalikda dalolatnomada tuziladi.

3.5. Hisobga olish priborlari bo'linish chegarasida o'rnatilmagan taqdirda issiqlik energiyasi uchun hisob-kitoblar bo'linish chegarasidan hisobga olish priborlari o'rnatiladigan joygacha bo'lган uchastkadagi issiqlik energiyasi yo'qotishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yo'qotishlarning hisob-kitobi "Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va uzatish uchun issiqlik yuklamalarini, yoqilg'i, elektr energiyasi, issiqlik energiyasi va suv sarflari meyorlarini hamda texnologik yo'qotishlar meyorlarini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Yo'qotishlarning hisob-kitobi "Ta'minotchi" tomonidan "Iste'molchi" bilan birqalikda tarmoqlarning mansubligi hisobga olingan holda amalga oshiriladi va ikki tomonlarda dalolatnomada tuziladi.

3.6. Quyidagi hollarda tarmoq suvidagi issiqlik energiyasi yo'qotishlari "Iste'molchi" tomonidan shartnomaviy narxlar bo'yicha to'lanadi:

Issiqlik tarmoqlarining gidravlik va haroratli sinovlari o'tkazilishi bilan bog'liq yo'qotishlar o'rnini to'ldirish;

"Iste'molchi" tarmog'ini uning buyurtmanomasi bo'yicha to'ldirish, avariyalari vaziyatlar ham shu jumлага kiradi;

"Iste'molchi"dan qaytariladigan past sifatli (tarkibida temir, mexanik qorishmalar va boshqalar mavjud bo'lган) orqaga qaytadigan tarmoq suvini sizdirish.

3.7. "Ta'minotchi"ning aybi bilan yuz bergan tarmoq suvidagi issiqlik energiyasi yo'qotishlari uchun "Iste'molchi" tomonidan haq to'lanmaydi.

3.8. "Ta'minotchi" va "Iste'molchi"ning issiqlik tarmoqlari balans bo'yicha mansubligi bo'linish chegarasigacha issiqlik energiyasi yetkazib berish bo'yicha barcha xarajatlar va uning yo'qotishlari tariflarda hisobga olingan bo'lib, tariflardan ortiqcha qo'shimcha haq to'lanishiga yo'l qo'yilmaydi.

3.9. Issiqlik tarmoqlarining balans bo'yicha mansubligi bo'linish chegarasidan keyin issiqlik energiyasining barcha harajatlari va yo'qotishlari "Iste'molchi"ning hisobiga tegishli bo'ladi. Agar issiqlik suv "Iste'molchi"ning issiqlik tarmoqlari orqali uzatilsa issiqlik energiyasi miqdori elektr stansiyasi (tuman qozonxonasi) kollektorida hisobga

olish priborlarining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi.

3.10. "Iste'molchi" xar oyda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib oladi va har oyning 25 sanasigacha iste'mol qilingan issiqlik energiyasi haqidagi hisobotni "Ta'minotchi"ga taqdim etadi.

Iste'mol qilingan issiqlik energiyasi haqidagi hisobot "Iste'molchi" tomonidan belgilangan muddatda taqdim etilmasa, "Ta'minotchi" hisob-kitobni shartnomadagi issiqlik yuklamasi bo'yicha amalga oshiradi. Ainalda iste'mol qilingan issiqlik energiyasi miqdorini qayta hisob-kitob qilish, soz holatdagi hisobga olish priborining ko'rsatkichlari birgalikda yozib olinib, tegishli dalolatnoma tuzilgandan keyin amalga oshiriladi. Mazkur qayta hisob-kitob, keyingi hisobot davri uchun hisob-kitob qilishda e'tiborga olinadi. Issiqlik energiyasi haqidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilganidan so'ng "Ta'minotchi" tomonidan "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblagichlarning ko'rsatkichi va haqiqiy iste'mol qilingan issiqlik energiyasi bo'yicha hisobot rasmiylashtiriladi (4-Illova), u uzatilgan va iste'mol qilingan issiqlik energiyasini hisobga olishning birlamchi xujjati bo'lib hisoblanadi. Hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari taqdim etilgan bo'lsa, ular bo'yicha hisobot bir tomonlama tartibda tuziladi.

"Ta'minotchi" iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun hisob-kitobni o'rnatilgan shakl (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat qo'mitasida ro'yhatga olingan yo'riqnomalar asosiga) bo'yicha amalga oshiradi hamda hisob-varaqasini yozib "Iste'molchi"ga topshiradi.

Shu bilan bir vaqtida "Ta'minotchi" hisob-varaqasiga asosan xizmat ko'rsatuvchi bank orqali "Iste'molchi"ning hisob raqamidan akseptsiz ravishda yechib olinishi uchun hisobot oyiga hisoblangan va amalga oshirilgan to'lovlar summasi ayrilgan qiymat bo'yicha to'lov talabnomasini taqdim etadi.

"Iste'molchi" har oyda issiqlik energiyasi uchun shartnomaviy miqdorning 15 % (o'n besh) foiz miqdorda tarif bo'yicha qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda oldindan to'lovni amalga oshiradi.

3.11. "Iste'molchi" tomonidan hisobga olish priborlari ko'rsatkichlaridagi nuqsonlar yoki issiqlik energiyasi sarsini hisoblashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlangan taqdirda "Iste'molchi" bir hafta muddatda bu haqda "Ta'minotchi"ga ariza berishi kerak.

Hisobga olish priborlarini tekshirish to'g'risida ariza berilishi "Iste'molchi"ni u iste'mol qilgan issiqlik energiyasi uchun to'lovni belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

3.12.Uzatilgan issiqlik energiyasi uchun "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ga 1 Gkal uchun viloyat moliya boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan delaratsiyada tasdiqlangan tarif bo'yicha to'laydi.

3.13. To'liq yetkazib berilmagan issiqlik energiyasining miqdori hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Cheklash vaqt "Ta'minotchi" dispatcherlik xizmatining operativ daftaridagi yozuvlar bo'yicha aniqlanadi hamda ikki tomonlama dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

"Ta'minotchi"ning aybi bilan "Iste'molchi"ning texnologik ehtiyojlariiga issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi, hisobga olish priborlari bo'yicha, issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmagan sutkadan oldingi 3 sutkadagi issiqlik energiyasining o'rtacha sutkalik iste'mol bilan issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmagan sutkada amaldagi iste'mol o'rtasidagi ayirma sifatida aniqlanadi.

3.14. Hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarining noto'g'riliqi yoki issiqlik energiyasi

sarfini hisoblashda xatolarga yo'l qo'yilganligi tasdiqlangan taqdirda "Ta'minotchi" oxirgi hisob-kitob davridagi issiqlik energiyasi sarfini tegishli ravishda,

"Iste'molchi"ning vakillari bilan birgalikda dalolatnomaga tuzib, qayta hisob-kitob qilishga majbur.

Yo'l qo'yilgan xatolar bo'yicha bajarilgan qayta hisob-kitob keyingi hisob-kitob davrida iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun navbatdagi to'lov hujjatini yozishda hisobga olinadi.

3.15. "Iste'molchi"larga issiq suv chtiyojlari uchun yetkazib beriladigan issiq suv harorat jadvalidan past bo'lgan taqdirda, issiq suv uchun tarif bo'yicha 0.2 foizli chegirma bilan amalga oshiriladi.

3.16. Tariflar o'zgargan taqdirda, ular amalga kiritilgan vaqtidan boshlab hisob-kitoblar, yangi tasdiqlangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Iste'mol qilingan issiqlik energiyasi uchun "Iste'molchi" tomonidan to'lovlari, hisob-kitob oyidan keyingi 30 kalendar kun mobaynida amalga oshiriladi.

3.17. Shartnomaviy issiqlik yuklamasini o'zgartirish "Iste'molchi"ning buyurtmasiga ko'ra "Ta'minotchi" tomonidan o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

#### IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

##### 4.1. "Iste'molchi"ning xuquqlari:

a) issiqlik energiyasidan foydalinish shartnomasiga muvofiq issiqlik ta'minoti korxonasidan issiqlik energiyasining uzlusiz yetkazib berilishini talab kilish;

b) issiqlik energiyasini yetkazib berish rejimini nazorat qilish, issiqlik energiyasi parametrlarining shartnomaviy miqdorlardan chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik; issiq suv yetkazib berish bo'yicha:

issiqlik beruvchi quvurda suv harorati bo'yicha - 3 foizdan ortiq (+);

issiqlik beruvchi quvurda suvning bosimi bo'yicha - 5 foizdan ortiq (+);

orqaga qaytadigan quvurda suvning bosimi bo'yicha - 20 kPa ortiq (+) chetga chiqishga yo'l qo'ymaslik. Bunda parametrlar o'rtacha sutkalik miqdor sifatida olinadi;

v) "Issiqlik energiyasidan foydalinish" qoidalari talablariga muvofik o'zining issiqlik tarmoqlariga subiste'molchilarni ulash;

g) issiqlik energiyasining shartnomaviy parametrlari "Ta'minotchi"ning issiqlik energiyasi iste'molini to'xtatish. Ushbu holda "Ta'minotchi" qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Iste'molchi" oldida javob beradi.

##### 4.2. "Iste'molchi"ning majburiyatları:

a) "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, "Issiqlikdan foydalananuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari"ga, "Issiqlikdan foydalananuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari"ga hamda "Issiqlik energiyasidan foydalinish qoidalari"ga qat'iy rioya qilish;

b) issiqlik energiyasi va issiq suv uchun tuzilgan shartnomada 2.2 bandida ko'rsatilgan iste'mol jadvaliga asosan buyurtmani to'liq qabul qilishni, issiqlik energiya uchun

shartnomada belgilangan muddatlarda haq to'lash;

- v) "Ta'minotchi" bilan kelishmasdan issiqlik energiyasi bir soatlik yuklamalarning shartnomaviy miqdorini oshirmsaslik hamda issiqlik energiyasidan foydalanish bo'yicha tuzilgan shartnomaga muvofiq issiqlik iste'moli rejimiga rioya qilish va tarmoq suvining olinishi miqdorini oshirmsaslik;
- g) issiqlik iste'moli rejimiga nisbatan "Ta'minotchi"ning tezkor ko'rsatmalarini bajarish;
- d) tarmoq suvini issiqlik energiyasidan foydalanish shartnomasida belgilangan miqdorda va tegishli haroratda qaytarish;
- ye) issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlari, issiqlikni hisobga olish priborlari, quvurlar izolyatsiyasi va issiqlikdan foydalanuvchi uskunalarini texnik jihatdan soz holatda saqlash;
- j) issiqlik energiyasi iste'molini vaqtincha to'xtatish bilan bog'liq bo'lgan ta'mirlash ishlarni bajarish muddatlarini "Ta'minotchi" bilan kelishish;
- z) hisobga olish priborlari, issiqlik suvni to'kish uchun jumraklar, toraytiruvchi qurilmalar va armaturani "Ta'minotchi"ning vakili bilan birgalikda plombalash, o'rnatilgan plombalarning saqlanishini ta'mirlash. Plombalarni olish "Ta'minotchi"ning ruxsati bilan amalga oshirilishi lozim;
- i) "Ta'minotchi"ning vakillarini issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarini sutkaning istalgan vaqtida to'sqiniksiz ko'zdan kechirishini ta'mirlash;
- k) issiqlik energiyasidan nooqilona va isrofgarchilik bilan foydalanimishiga yo'l qo'yimaslik;
- l) issiqlik tarmoqlari ustida imoratlar qurilishiga, materiallar taxlanishiga, daraxtlar o'tkazilishiga yo'l qo'yimaslik;
- m) "Ta'minotchi" bilan kelishmasdan issiqlik tarmoqlarini, muxandislik uskunalarini va qurilmalarni qayta jihozlashga yo'l qo'yimaslik;
- n) isitish priborlarining qoshimeha seksiyalari, berkitish va boshqarish armaturalari o'rnatilishiga va chiqarib olinishiga yo'l qo'yimaslik;
- o) isitish tizimlarida issiqlik tarmoqlaridan boshka maqsadlarda foydalanimishiga (isitish tizimlari va priborlaridan suv oqizilishiga) yo'l qo'yimaslik;
- p) "Iste'molchi" "Ta'minotchi"ning balansida turgan issiqlik tarmoqlarida, oldindan kelishilgan holda amalga oshiriladigan ta'mirlash va qurilish ishlarni bajarish uchun "Ta'minotchi"ning vakillarini o'z hududiga kiritishi lozim;
- r) barcha issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlarining ijro chizmalarini va pasportlariga hamda ekspluatatsiya qilish yo'riqnomalariga ega bo'lish;
- s) issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlariga tayyorgarlik ko'rgan xodimlar tomonidan xizmat ko'rsatilishini ta'mirlash;
- t) ishlab chiqarilayotgan mahsulot (bajariladigan ishlar) birligiga, issiqlik energiyasi sarfining meyorlarini ishlab chiqish va ularga rioya etilishini nazorat qilish.

#### 4.3. "Ta'minotchi"ning huquqlari.

- 4.3.1. "Ta'minotchi" quyidagi hollarda "Iste'molchi"ni ogohlantirib, unga issiqlik energiyasi yetkazib berishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:
  - a) issiqlik energiyasi uchun to'lov hujjatida belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda yoki issiqlik energiyasidan foydalanish shartnomasida belgilangan miqdorda oldindan to'lov amalga oshirilmaganda;
  - b) subiste'molchilar, yangi issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlari o'zboshimchalik bilan ulanganda;

- v) issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlari "O'zdavenergonazorat" DI ruxsatisiz ishga tushirilganda;
- g) issiqlikdan foydalanuvchi qurilmalar va issiqlik tarmoqlari hisobga olish priborlaridan oldin ulanganda;
- d) issiqlik yuklamalarining belgilangan shartnomaviy miqdorlari yoki tarmoqdag'i suv sarfining miqdori "Ta'minotchi"ning roziligesiz oshirilganda;
- ye) issiqlik energiyasidan foydalanish shartnomasida belgilangan bir soatda olinadigan tarmoq suvining miqdori oshirilganda;
- j) tarmoqdag'i suv ifloslanganda;
- z) "Ta'minotchi" vakillari issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarini ko'rishga qo'yilmaganda.

4.3.2. Uskunalarini ta'mirlash bo'yicha rejali ishlarni amalga oshirishda yoki yangi "Iste'molchi"larni ularshda zaxira ta'minlash manbai mayjud bo'lmasa "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ni uzib qo'yish huquqiga egadir. "Iste'molchi"ni issiqlik energiyasi yetkazib berishning to'xtatilishi to'g'risida ogohlantirish issiqlik energiyasi yetkazib berishda tanaffusning aniq sanasini (kunlar va soatlarni) kelishish uchun 10 kun oldin amalga oshiriladi. Agar ogohlantirishdan keyin 5 kun muddatda "Iste'molchi" issiqlik berishdag'i tanaffus vaqtini kelishib olmasa, "Ta'minotchi" ushbu vaqtini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega. Issiqlik energiyasi berishdag'i tanaffus, imkonli boricha bu haqda uzib qo'yishdan kamida 24 soat oldin "Iste'molchi"ni ogohlantirgan holda, uning ishdan tashqari vaqtida amalga oshirilishi kerak.

4.3.3. Avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish uchun "Ta'minotchi", uzib qo'yish sabablarini darhol ma'lum qilgan holda, "Iste'molchi"ga issiqlik energiyasi yetkazib berishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

4.4. "Ta'minotchi" quyidagilarga majbur:

- a) shartnomaga muvofiq "Iste'molchi"ga issiqlik energiyasining uzluksiz yetkazib berilishini ta'minlash;
- b) "Iste'molchi"da "Ta'minotchi"ning obyektida o'rnatilgan issiqlik energiyasini hisobga olish priborlari ko'rsatkiehlerining to'g'riliqi bo'yicha shubha tug'iladigan bo'lsa, "Ta'minotchi", belgilangan tartibda, sutkaning istalgan vaqtida "Iste'molchi" vakillarini issiqlik energiyasini hisobga olish priborlarini ko'zdan kechirishini ta'minlashi lozim;
- v) issiqlik tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegaralarida issiqlik suv parametrlarining shartnomaga muvofiq bo'lishini ta'minlash, ularning:

issiqlik beruvchi qurvurda suv xarorati bo'yicha - 3 foizdan ortiq ( $\pm$ );

suv bosimi bo'yicha:

issiqlik beruvchi qurvurda - 5 foizdan ortiq ( $\pm$ );

orqaga qaytadigan qurvurda - 20 kPa dan ortiq ( $\pm$ ) chetga chiqishiga yo'l qo'ymaslik. Bunda parametrler or'tacha sutkalik miqdor sifatida hisobga olinadi;

g) "Ta'minotchi"ning aybi bilan to'liq yetkazib berilmagan issiqlik energiyasi qiymatini qoplash. To'liq yetkazib berilmagan energiya hajmi "Iste'molchi"ning vakili ishtirokida "Ta'minotchi" tomonidan aniqlanadi va dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi;

d) "Iste'molchi"ning issiqlik energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi, issiqlik eltuvchi parametrlarini shartnomadagi qiymatlarga nisbatan pasayganligi to'g'risidagi yozma arizalarini 10 kun muddatda ko'rib chiqish:

ye) issiqlik tarmoqlarining gidraylik hisob-kitobiga muvosiq “Iste’molchi”ning issiqlik bog’lamalari uchun toraytiruvchi qurilmalarning o’lchami (razmer sujayushego ustroystva) belgilab beriladi.

## V. SHARTNOMA BAJARILMAGANDA YOKI LOZIM DARAJADA BAJARILMAGANDA TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Issiqlik energiyasi bilan ta’minlashda “Ta’minotchi”ning aybi bilan tanaffuslar yuz bergan taqdirda “Ta’minotchi” issiqlik ta’minotidagi tanaffuslar oqibatida “Iste’molchi”ga yetkazilgan moddiy zararni qoplaydi.

Agarda «Iste’molchi» shartnomani 4.2 bo’limi «b» bandini to’liq bajarmasa, (shartnomani oldindan bekor qilish, buyurtma qilingan issiqlik energiya ta’minotini kamaytirish yoki 1 (bir) oydan ko’p vaqt mobaynida shartnomadagi buyurtmadan foydalanishdan voz kechsa va hakazolar) «Ta’minotchi»ga shu davr mobaynida buyurtma qilingan issiqlik energiya va issiq suv ta’minotining 10 % (un) foiz zararni qoplaydi.

5.2. Issiq suv holidagi issiqlik energiyasini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborilgan, to’liq yetkazib berilmagan hollarda, “Ta’minotchi” “Iste’molchi”ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to’laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan issiq suv holidagi issiqlik energiyasi bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to’lash shartnomaga majburiyatlarini buzgan tomonni issiqlik energiyasini yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to’liq yetkazib bermaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. Agar yetkazib berilgan issiq suvning sifati bo’yicha standartlar, texnik shartlar, qonun hujjatlari yoki xo’jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, («Ta’minotchi» va “Iste’molchi”ning vakillari bilan birgalikda nosozlik holati kelib chiqishini aniqlash ishlari bajarilib ikki tomonlama dalolatnomalar tuzilganda) issiq suvni istyemol qilish hamda ularning haqini to’lashni rad etib, “Ta’minotchi” dan sifati lozim darajada bo’lmagan issiq suv qiymatining miqdorida jarima undirib olishga haqlidir. Jarimani undirish to’g’risidagi to’lov talabnomasi bank muassasasiga issiq suv sifati lozim darajada emasligi to’g’risidagi ikki tomonlama dalolatnomalar tuzilgandan keyin o’n kun ichida taqdim etiladi. Jarimani undirish to’g’risidagi to’lov talabnomasi belgilangan o’n kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.4. Yetkazib berilgan issiq suv holidagi issiqlik energiyasi haqini o’z vaqtida to’lamaganlik uchun “Iste’molchi” “Ta’minotchi”ga o’tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to’lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to’lov summasining 50 foizidan ortiq bo’lmagan miqdorida penya to’laydi.

5.5. Ushbu shartnomaning bekor qilinishi va amal qilish muddatining tugashi, “Ta’minotchi” va “Iste’molchi”ni turli ko’rinishdagi yetkazilgan zararni qoplash va iste’mol qilingan issiqlik energiyasi uchun qarzlarni to’lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

5.6. Issiqlik iste’moli obyektlarining issiqlik tarmoqlarini holati va ularga xizmat ko’rsatilishi bo’yicha javobgarlik chegaralari “Ta’minotchi” va “Iste’molchi” o’rtasida tuzilgan, issiqlik tarmoqlarining balans bo’yicha mansubligini bo’linish va ularni ekspluatatsiya qilish yuzasidan javobgarligi chegaralari dalolatnomasi bilan belgilanadi.(1-ilova).

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: КО53671124

5.7. “Ta’minotchi” isitish tizimi yoqilganida suv aylanishi va issiq suv ta’minoti uchun tarmoqdagi suv uzatilishini bir qivurdan boshqasiga o’tkazilshi bilan bog’liq bo’lgan holda tarmoq suvi sifatining (shaffofligi, rangi, xidi) vaqtincha buzilganligi uchun javobgar bo’lmaydi.

5.8. Issiqlik energiyasi tarmoqlariga o’zboshimchalik bilan ulanish yoxud ularidan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish, issiqlik energiyasi, issiq suvni hisobga

olish asboblariga qasddan shikast yetkazish yoxud bunday hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 101-moddasiga asosan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ancha miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lса, - O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 1852-moddasiga asosan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

## VI. FORS-MAJOR

6.1. Tomonlar quyidagi holatlarda issiq suv holidagi issiqlik energiyasini yetkazib berish va iste'mol qilishni to'xtatish yoki kamaytirishga haqlidirlar va buning uchun javobgarlikka tortilmaydilar:

a) "Ta'minotchi" uskunalarining ishdan chiqishiga sabab bo'lgan tabiiy hodisalar: momaqaldiroq, bo'ron, suv toshqini, zilzila, yong'in, 48 soatdan ortiq vaqt mobaynida ushbu hududda isitishni loyihalashtirish uchun hisoblab chiqilgan haroratdan 30sга va undan ortiq past bo'lgan haroratda havoning uzoq vaqt sovib ketishi, boshlang'ich suv sifatining yomonlashishi holatlarda;

b) yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmaygan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlarda;

6.2. "Ta'minotchi" tizimidagi avariyalarning oldini olish va ularni bartaraf etish yoki odamlarning havfsizligini ta'minlash ishlarini o'tkazish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lganda "Iste'molchi" bilan kelishmusdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda issiqlik bilan ta'minlashda tanaffusga (uzib qo'yishga) yoki cheklashga yo'l qo'yiladi.

6.3. Agar mazkur shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan holatlар tomonlar o'z majburiyatlarini bajarish muddatlariga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lса, ushbu muddatlar fors-major holatlарining amal qilish vaqtiga suriladi.

## VII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI, MUDDATINI UZAYTIRILISHI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Mazkur shartnomada tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 1 yanvardan, 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi. Agarda tomonlardan biridan yozma ravishda shartnomani bekor qilish haqida ariza tushmasa, shartnomma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

Ushbu shartnomada bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi, ulardan bittasi "Ta'minotchi"da, ikkinchisi esa "Iste'molchi"da saqlanadi.

## VIII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnomada yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi.

8.2. Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi orqali hal qilinadi.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: K053671124

#### IX. SHARTNOMAGA ILOVALAR

- 9.1. Ushbu shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi va ular shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi:
- a) "Ta'minotchi" va "Iste'molchi" o'rtaida issiqlik tarmoqlarining balansga mansubligi bo'yicha bo'linish chegaralarini belgilash dalolatnomasi (1-ilova);
  - b) "Iste'molchi"ning vakolatlangan mas'ul shaxsini tayinlash to'g'risidagi ishonchnoma (2- ilova);
  - v) "Iste'molchi" obyektlari va issiqlik yuklamalari o'rnashgan joylari (dislokatsiyasi) to'g'risidagi ma'lumotnama (3-ilova);
  - g) "Iste'molchi" tashqi issiqlik ta'minotining principial sxemasi, unda javobgarlik chegaralari va hisobga olish asboblari o'rnatilgan joylar ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
  - d) Isitish uchun uzatiladigan issiqlik energiyasining harorat jadvali.
  - ye) "Iste'molchi" va "Ta'minotchi" bilan kelishilgan buyurtmanomaning bir sutkalik iste'mol jadvaliga asosan belgilangan va yil choraklari bo'yicha bo'linishi kursatkichlari (6-ilova);

#### X. TOMONLARNING REKVIZITLARI

Ta'minotchi


"ISTE'MOLCHI"

«Xorazm issiqlik manbai» DUK	Xonqa tuman Xalq ta'lif bo'limi
Pochta manzili: 220100 Xorazm viloyati	Pochta manzili: Xonqa tuman Xalqlar do'stligi ko'chasi 29- uy
Urganch shahri A.Temur kuchasi 163 uy.	Tel,faks 39-93-257
Hisob raqami: 20210000300313443001	x\rakam100022860332237092100075061
ATIB «Ipoteka» Urganch shaxar tiliali	Bank nomi Toshkent shaxarMarkaziy banki
Bank kodi (MFO) 00579	Bank kodi (MFO) _00014
STIR(INN) 200408925	STIR (INN) 201452895
Elektron manzil: Xorazmissiqlikmanbai@mail.ru	G'aznachilikx/r23402000300100001010



Rahbar

Rahbar



"Iste'molchi"ning bo'lim boshllg'i

(F.I.SH.)

"Ta'minotchi"ning xodimi

(F.I.SH.)

"Iste'molchi"ning xodimi

(F.I.SH.)

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA  
XUQUQIY XULOSA.

№ K053671124


1. Loyihaning turi: Shartnomma.
2. Loyihaning nomi: Xonqa tuman xalq ta’limi bo‘limi bilan «Xorazm issiqlik manbai» DUK o‘rtasidagi issiq suv holidagi issiqlik energiyasini yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomma.
3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:

Xorazm viloyati Xonqa tuman xalq ta’limi bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022 yil 27 yanvarda dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Xonqa tuman yuridik xizmat ko‘rsatish  
markazi bosh yuriskonsul’ti

2021-yil «27» yanvar.



M.M.Boyjonov

«01» Анвар 2022 йилдаги №400 ШАРТНОМАГА

**ИЛОВА**

Таъминотчи  
Истельмолчи

"Хонка Иссиклик Манбай" ДУК

Жерчы түсінген жаңу тағамдарынан бүлешмег

№	Махсулот түри	Үл. бир.	Миқдори	Нархи	Умумий қиймати
1	Иссиклик энергияси	Г/кал	1086	193200	209813200
	Жами:				

Шу жумладан ойлар кесимидә

№	Ой номи	Үл. бир.	Миқдори	Нархи	Умумий қиймати
1	Анвар	Г/кал	465	193200	89838000
2	Ферней		414	193200	79984800
3	Ладжон		207	193200	39992400
4					
5					
6					
7					
	Жами:				209813200

«Таъминотчи»



М.У.

Ш.Бабажанов

(Ф.И.О.)

«Истельмолчи»



М.У.

Б. Абдуллаев

(Имзо)

(Ф.И.О.)